



AIFU

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FE'L SO'Z TURKUMI TIPOLOGIYASI

Sarvinoz Abdullajon kizi Tojimukhammedova

Magistratura talabasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

E-mail: tojimuxammedova2000@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumi tipologiyasi, fe'l so'z turkumining funksional xususiyatlari, uning grammatic kategoriyalari, o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy aspektida tadqiq etiladi. Shu bilan birga, mazkur masalaga doir misollar ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kategoriya, oppozitsiya, konstruksiya, aniq nisbat, majhul nisbat, leksik-grammatical xususiyatlar, paradigm, affiksatsiya

98

TYPOLOGY OF THE VERB IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract: In the article, the typology of the verb phrase, the functional characteristics of the verb phrase, its grammatical categories, and similarities and differences are studied in a comparative aspect in the English and Uzbek languages. At the same time, examples of this issue are analyzed in English and Uzbek.

Key words: category, opposition, construction, active voice, passive voice, lexical-grammatical features, paradigm, affixation

ТИПОЛОГИЯ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В статье изучается типология глаголов, функциональные особенности глаголов, их грамматические категории, сходные и разные аспекты в сопоставительном аспекте в английском и узбекском языках. При этом анализируются примеры данного вопроса на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: категория, оппозиция, конструкция, действительный залог, страдательный залог, лексико-грамматические признаки, парадигма, аффиксация.

Fe'l boshqa so'z turkumlariga qaraganda turli xil kategoriyalarga egaligi bilan ajralib turadi. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l grammatic kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi, lekin har ikkala tillarda fe'lning kategoriyalari bir-biridan farq qiladi. Ba'zan o'xshashlik tomonlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Ingliz tilida fe'lning quyidagi grammatic kategoriyalari mavjud: *Perfekt (korrelyatsiya) kategoriyasi (The category of perfekt (correlation Order)), nisbat*

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

kategoriyasi (*The category of voice*), *shaxs kategoriyasi* (*The category of person*), *son kategoriyasi* (*The category of number*), *zamon kategoriyasi* (*The category of tense*), *aspekt* (*tus, tarz*) *kategoriyasi* (*The category of aspect*), *mayl kategoriyasi* (*The category of mood*).

Hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos grammatik kategoriylar quyidagilarni tashkil etadi: *Daraja, bo'lishli - bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs - son.* [5; 445]

Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik formalarini o'zaro qarama - qarshi qo'yish vositasida ifodalanadi. [2;151] *Perfekt kategoriyasi* (*The category of perfect*) ish - harakatning ma'lum muddat yoki vaqtdan oldin sodir bo'lishini, tugallangani yoki tugallanishini ko'rsatadi. Masalan:

I have finished my work - Men ishimni tugatdim.

Perfekt kategoriyasi bo'yicha fe'l shakllari 2 xil bo'ladi: *I. perfekt bo'limgan fe'l shakllar* (*Non - perfekt verb forms*). *II. perfekt analitik fe'l shakllari* (*Analytical perfect forms of the verb*).

Fe'lning perfekt bo'limgan shakllari turli kategoriyalarda perfekt shakllarga qarama - qarshi qo'yiladi, ya'ni oppozitsiyaga kirishadi. Fe'lning perfekt shakli to have fe'lining sifatdosh II ga qo'shish yo'li bilan yasaladi. Masalan: *I have come; I had come; I shall have come.*

Perfekt shakl to be fe'lini sifatdosh II ga qo'shish yo'li bilan ham yasalishi mumkin va bu usul bilan yasalganda fe'l har doim o'timsiz bo'ladi. Masalan: *His parents were gone for a fortnight's holiday. It was all gone.*

Nisbat kategoriyasi xususida gapirar ekanmiz, unga shunday izoh berish mumkinki, fe'lga xos nisbat kategoriyasi sintaktik konstruksiya tomonidan ifoda etilgan vaziyatning ishtirokchilari o'rtaсидagi munosabat xarakteri va uning yo'naliшini ko'rsatadi. Nisbat kategoriyasining tilda mavjudligi odatda fe'lning aniq nisbat shakllarini majhul nisbat shakllariga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Bu asosiy fe'lning sifatdosh II shakli, ya'ni *be* - *V en* yordamida ifodalanadi. Bunday qarama-qarshi qo'yishda majhul daraja oppozitsiyaning belgilangan, ya'ni ifodali va kuchli a'zosi hisoblanadi. Majhul daraja sintaktik qurilma egasi tomonidan ish-harakatni o'ziga qabul etishni ifodalaydi. Bu qurilmalardagi ega majhul yoki passiv ega deb yuritiladi va ish-harakatning obyekti vazifasini o'taydi. Aniq nisbat shakli bu oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi bo'lib, mazkur ma'noni umumlashtirgan holda nomajhullik tarzida ifoda etadi. Bu nomajhullik o'zbek tilida kauzativ nisbat, o'zlik nisbat, birgalik nisbatlar tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ingliz tilida fellarning majhul nisbat shaklida ishlatilish ko'lami ancha kengdir. Jumladan, ingliz tilida o'zbek tilidagidek faqatgina o'timli fe'llar emas, balki o'timsiz fe'llar ham majhul nisbat shaklida ishlatilaveradi. Masalan: *Tom has just been rung up by the police.*

Tomga hozirgina polisiyadan qo'ng'iroq qilishdi.

The diplomat was refused transit facilities through London.

Diplomantga London orqali o'tishga ruxsat berilmadi.

Birinchi gapda ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tilida birgalik nisbat shaklida berilyapti. Ikkinci gapda esa, ingliz tilidagi majhul daraja shakli o'zbek tilida ham saqlanmoqda. Ushbu gapga e'tibor qilaylik: *She was undisturbed by the frown of his face. - Yigitning yuzidagi g'azab ifodasi qizni bezovta qilmadi.*

Bu gapda majhul nisbat ifodasi o'zlik nisbat shakli orqali ifoda etilmoqda. Shuningdek, ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tiliga tarjima qilinganda birgalik nisbati yoki anqlik nisbati orqali ham berilishi mumkin. Masalan: *Have you*

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

ever been told that you were good looking? - Sizga hech mahal "sizni istarangiz juda issiq" deb aytishmaganmi?

Yuqorida biz to'ldiruvchi bilan ishlatilinadigan ayrim fe'llarning majhul darajada ishlatilinishini kuzatdik. Ammo shu turdag'i barcha fe'llar ham passiv shaklda ishlatilavermaydi. Masalan, holatni bildiruvchi fe'llar, ya'ni *to have, to belong, to cost, to resemble, to fail, to misgive* kabi qator fe'llar majhul darajada ishlatilmaydi. Shunga ko'ra fe'llar ikki katta guruhga bo'linadi:

- 1) majhul daraja shaklida ishlatilinadigan fe'llar;
- 2) majhul daraja shaklida ishlatilmaydigan fe'llar;

Agar ingliz tilida fe'llarning katta bir qismi majhul nisbat shaklida ishlatilmasligi e'tiborga olinsa, nisbat kategoriyasini ingliz tilida fe'llarga mansub grammatik kategoriya deb aytishga asos yo'qdek tuyuladi. Chunki agar nisbat kategoriyasi oppozitsiyasi ikki a'zodan – aktiv va passiv a'zolardan iborat bo'lishi va katta bir guruh fe'llarda bu oppozitsi ya neytralizatsiyaga uchrashi nazarda tutilsa, bunday grammatik kategoriyaning tilda mavjud grammatik kategoriyalar orasidagi o'rni haqida o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Chunki aktiv shaklning faolligini isbotlash uchun uni passiv shaklga solishtirish kerak, shunda aktiv shaklning passiv shaklga o'xshamaganligi uni aktiv deb aytishga asos bo'ladi.

Aktiv-passiv oppozitsiyasi ishlamaydigan, ya'ni neytrallashgan bu o'rinnlarda, umuman, nisbat haqida gapirilmasa ham bo'ladi. Ammo ingliz tilidan farqli o'laroq, o'zbek tilida bu kabi fe'llar va boshqa barcha fe'llar nisbat kategoriyasi orbitasidan chiqib keta olmaydi, chunki, birinchidan, bu tillarda nisbat kategoriyasi ko'p a'zoli oppozitsiyaga ega. Ikkinchidan, agar a'zolar soni ko'p bo'lsa, buni oppozitsiya deb nomlash qiyin.

100

Ingliz tilida bu masalaga bir oz oydinlik kiritish zarurati tug'ildiki, bu narsa ingliz tilining hozirgi holatida bu til morfologik strukturasining bir oz kambag'alligi bilan izohlanadi. Shuning uchun bunda oppozitsiya aktiv-passiv shaklida emas, balki nopassiv-passiv shaklida bo'ladi. Chunki passivda ishlatilmaydigan fe'llar o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra boshqa barcha kategorial shakllarga ega va to'liq paradigmani hosil qiladi. Masalan:

takes – goes, is taking – is going, has taken – has gone

Shuning uchun nopassiv ma'nolarning ayrimlari, yuqorida biz aytib o'tganimizdek, sintaktik yoki leksik yo'l bilan ifodalananadi.

The door opens inside the room – Eshik ichkariga ochiladi.

Bu o'rinda *opens* fe'lining nisbatga tegishliligi o'zbek va ingliz tillarida turlicha baholanadi. Ingliz tilida shakli aktiv bo'lgani bilan ma'nosi aktiv nisbat ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Ma'nosi passivga yaqinroq keladi, lekin shakli to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun bu kabi hollar ingliz tilida *middle voice – o'rta nisbat* deb yuritiladi. Masalan: *The magazine doesn't sell well – Jurnal yaxshi sotilmaydi.*

Bundan tashqari, majhul darajada qo'llaniladigan va qo'llanilmaydigan fe'llar o'rtasidagi chegara ham juda nisbiydir, ya'ni majhulda ishlatilmaydi deb hisoblanadigan fe'llar nutqda majhul shaklda ko'rinish qolishi mumkin. Masalan:

The bed had not been slept in.

The house seems hot to have been lived in for a long time.

Shunday qilib, ingliz tilida passiv shakllar potensial jihatdan barcha fe'llar bilan qo'llanilishi mumkin. Ammo uni nutqda ifodalashda ayrim cheklash bo'lishi mumkin. Ingliz tili nisbat paradigmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Active

1. Present Simple

Passive

1. Present Simple Passive

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

- | | |
|--------------------------------|------------------------------|
| 2. Past Simple | 2. Past Simple Passive |
| 3. Future Simple | 3. Future Simple Passive |
| 4. Present Continuous | 4. Present Passive |
| 5. Past Continuous | 5. Past Continuous Passive |
| 6. Future Continuous | 6. Future Continuous Passive |
| 7. Present Perfect | 7. Present Perfect Passive |
| 8. Past Perfect | 8. Past Perfect Passive |
| 9. Future Perfect | 9. Future Perfect Passive |
| 10. Present Perfect Continuous | 10. __ |
| 11. Past Perfect Continuous | 11. __ |
| 12. Future Perfect Continuous | 12. __ |

Tabiiyki, nega davomli shakllarning perfekt aspektida shakllari yo'q? Nega normativ grammatikalarda davomli formalarning passiv shakli inkor qilinadi? degan savollar tug'ilishi mumkin.

Gap shundaki, ingliz tilida *to be* fe'l polifunksional aktiv va nutqda eng ko'p uchraydigan fe'l hisoblanadi. Mana shu fe'l passiv shaklni yasashda ham, davomli shakllarni yasashda ham ishtirok etuvchi asosiy yordamchi fe'l sanaladi. Davomli passiv shakllarni yasashda *to be* fe'l ikki marta ishlatilinadi. Masalan: *The patient is being examined* yoki *The patient has been being examined*.

Yordamchi fe'llarning bu qadar ko'p, keragidan ortiqcha ishlatilishining oldini olish maqsadida, Future Continuous Passive hamda Perfect Continuous Passive shakllar nutqda bir oz soddalashtiriladi va Future Continuous Passive o'rniغا Future Indefinite Passive va Perfect Continuous shakllari o'rniغا Perfect Passive shakllari ishlatilinadi.

B.S. Haymovich va B.I Rogovskayalar nisbatni 5 ga bo'lishgan: aniq nisbat, majhul nisbat, birqalik nisbat, o'zlik nisbat, betaraf nisbat. [4; 298]

Masalan: *The letter was written by me.* (majhul nisbat);

I write a letter. (aniq nisbat);

They met each other. (birlik nisbat);

I washed myself, (o'zlik nisbat);

The door is open, (betaraf nisbat).

Nisbat kategoriyasini 5 ga bo'lishdan sabab, morfologik qatlam bilan leksik qatlamning aralashtirib yuborish natijasidir. Agar nisbat kategoriyasini leksik sathda qaraydigan bo'lsak, uning sonini yana ham ko'paytirish mumkin. Masalan: *I open the door with a key.*

Ingliz tilida nisbat kategoriyasi morfologik sathda qaralganda, fe'lning grammatik kategoriyasi hisoblanganda, faqatgina 2 ta nisbatga bo'linishi mumkin: Aniq nisbat (*Active voice*); majhul nisbat (*Passive voice*) [3; 46]. Masalan:

The sun attracts the planets. (aniq nisbat), *Quyosh sayyoralarini tortib turadi.*

The planets are attracted by the sun. (majhul nisbat), *Sayyoralar quyosh tomonidan tortiladi.*

Deyarli barcha olimlar ingliz tili fe'l sistemasida ikkita nisbat bor deb hisoblashsalar, Poutsma, B.N. Jigadlo ingliz tilida ikkita nisbat bor desa, Whitehall 4 ta nisbat bor deydi [2;185]. G.Suit nisbatni quyidagicha ta'riflaydi: " By voice we mean different grammatical ways of expressing the relation between a transitive verb and it's subject and object ."

L.S. Barxudarov, D.A. Shtelling: "fe'lning nisbat kategoriyasi ish-harakatning bajaruvchisiga nisbatan turlichay yo'nalishni ifoda etadi ." deb ta'riflaydi [1; 156]

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil nisbat shakli mavjud: aniq nisbat, o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, majhul nisbat. Har ikkala tillardagi nisbat kategoriyasi yasalishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilidagi majhul nisbat o'ziga xos fe'l shakllaridan yasaladi. O'zbek tilida esa, aniq nisbatdan tashqari barcha nisbatlar affiksatsiya usuli orqali yasaladi. Masalan:

The letter was written by him. - Xat u tomonidan yozildi.

Bu misollarning ingliz tilidagi shaklida majhul nisbat *to be* va P_{II} shakllaridan yasalgan O'zbek tilidagi gapda majhul nisbat *-il* affiksi orqali yasalgan. Bundan tashqari o'zbek tilidagi o'zlik, birgalik, orttirma nisbatlar ham affiksatsiya usuli orqali yasaladi.

Fe'l harakat ma'nosini bildiruvchi so'zdir. Shu jumladan, biz o'z tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning morfologik, leksik-semantik, leksik-grammatik, sintaktik xususiyatlariga ko'ra boshqa so'z turkumlaridan ajralib turishini ko'rib chiqdik. Fe'llar gapda ma'lum bir subyekning harakatini ifodalab keladi. Fe'l murakkab kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik shakllarini o'zaro qarama-qarshi qo'yish vosita sida ifodalanadi. Tadqiqotimiz natijasida shuni ko'rdikki, o'zbek tilida fe'l sintaktik jihatdan kesim vazifasida gapning oxirida kelsa, ingliz tilida esa ikkinchi o'rinda kelishini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. - М.: ВШ, 1975. – С.156.
2. Бўронов .Ж.Б Ҳошимов .Ў , Исламуллаев . Х . English grammar- Т.: Ўқитувчи, 1974. – 351 б.
3. Iriskulov A.T. Theoretical Grammar of English. – Tashkent, 2006. – 64 р.
4. Хаймович Б. С., Роговская Б. И. Теоретическая грамматика английского языка. - Москва: Высш. школа, 1967. - 298 с.
5. Ўзбек тили грамматикаси . Том 1 Морфология. - Т.: Фан, 1975 . – Б. 445.